

GENDER TENGLIGI VA AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Sayfullayeva Gulsanam Zafarovna

Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya" yO'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi inson huquqlari tizimining eng muhim va dolzarb yO'nalishlaridan biri sifatida tahlil etilgan. Unda gender tengligi tushunchasining mazmun-mohiyati, ayollar huquqlarini alohida himoya qilish zarurati hamda ushbu jarayonning inson qadr-qimmatini ta'minlashdagi O'rni ochib berilgan. Maqola "Inson huquqi" darsliklarida yoritilgan tenglik, kamsitmaslik va adolat tamoyillariga asoslangan holda yozilgan bO'lib, ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotdagi huquqiy maqomi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, ayollar huquqlari, inson qadr-qimmati, huquqiy davlat, ijtimoiy adolat, teng huquqlilik, kamsitmaslik tamoyili, fuqarolik jamiyati.

Inson huquqlari jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonini hisoblanadi, u har bir shaxsning jinsi, millati, irqidan qat'i nazar huquqlarda tengligini ta'minlaydi. Gender tengligi esa ushbu tizimning ajralmas qismi bo'lib, ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, ayollar huquqlarining buzilishi jamiyatda adolat va tenglik prinsiplariga putur yetkazadi. Shu sababli, gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish masalasi zamonaviy huquqiy davlat barpo etishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Gender tengligi - bu ayollar va erkaklarning qonun oldida tengligi bilan birga, ularning huquq va erkinliklaridan real foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishini anglatadi. Darsliklarda gender tengligi inson huquqlarining asosiy tamoyillari – tenglik va kamsitmaslik prinsiplariga tayangan holda izohlanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlar qadr-qimmat va huquqlarda teng deb e'tirof etilishi gender tengligining universal huquqiy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, darsliklarda faqat formal tenglik emas, balki amaliy tenglikni ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Jamiyatning eng yordamga muhtoj va nochor qismi ayollardir. Ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash jahon hamjamiyatidan alohida e'tibor berishni talab qiladi. Ayollar huquqlari barcha davlatlarda mutlaqo va sO'zsiz himoyalaniishi lozim. Ushbu huquqning alohida yuridik maqomi shaxs daxlsizligi va shaxsning insoniy qadr-qimmati bilan belgilanadi. Hozirgi kunda xotin-qizlarni turli himoya qilish vosita va

mexanizmlari mavjud, lekin shunga qaramay, ularga tazyiqlar O'tkaziladi. Masalan, Afg'onistonda, Eronda, Shimoliy Koreyada, hattoki qO'shni Turkmanistonda va boshqa kO'plab davlatlarda ayollar huquqlari ochiqchasiga poymol bo'layotgani, ayollarning tabiiy va fundamental huquq va erkinliklarini cheklab kelayotgan qonun-qoidalar xotin-qizlarning jamiyatda O'z O'zni va erkini yo'qotishi, ularning hayot sifati tushib oyoqosti bo'lishi kuzatilmoqda. Nimaga bunday vaziyatlar yuzaga kelmoqda? Ayollarning erkaklarga nisbatan jismoniy zaifligi, ya'ni nozikligi bunga asosiy sabab va jamiyatda ayollarga nisbatan shakllangan odatlar. Ayollar huquqlari – ayollarning fuqarolik-siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini mustahkamlaydigan huquqlardir. Ular ayollarni jinsga qarab kamsitishlardan himoya qilish uchun mo'ljallangan. Ma'lumot O'rnida aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz aholisining qariyb 50%ini xotin-qizlar, jumladan, ularning 29%ini 14 yoshgacha bo'lgan qizlar, 28%ini 15-30 yoshlilar, 21%ini 31-45 yoshlilar, 15%ini 46-60 yoshlilar, 7%ini esa 60 yoshdan oshgan xotin-qizlar tashkil etadi.

Ayollar huquqlarini himoya qilish inson qadr-qimmatini ta'minlashning muhim shaklidir. Tarixan ayollar turli sohalarda kamsitilganligi sababli ularning huquqlarini alohida kafolatlash zarurati yuzaga kelgan. Ayollar huquqlarini himoya qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: zo'ravonlikdan himoyalaniş huquqi; ta'lim va mehnat qilish huquqi; teng mehnat uchun teng haq to'lash huquqi; oilaviy va shaxsiy hayot daxlsizligi; davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etish huquqi. Ayollarning huquq va imkoniyatlari to'liq ta'minlangan jamiyatda ijtimoiy adolat mustahkamlanadi, huquqiy ong yuksaladi va fuqarolik jamiyati rivojlanadi. Gender tengligi mavjud bo'lgan jamiyatda ayollar ijtimoiy munosabatlarning faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Teng huquqlar jamiyatning barqaror rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi.

Mamlakatimizda ayol huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi kodekslari, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun(2019), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun(2019) va boshqa qonunlar bilan himoyalaniadi. Bu qonunlar ijtimoiy-siyosiy sohalarda ayollarning rolini oshirish, xotin-qizlarga imkoniyat va vakolat berish maqsadida qabul qilindi. Asosiy qomusimiz Konstitutsiyada mustahkam belgilab qo'yilgan, ya'ni: "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi"(58-modda).

Gender tengligi va ayollar huquqlarini himoya qilish inson huquqlari tizimining ajralmas va muhim yo'nalishidir. Ayollar huquqlarining ta'minlanishi jamiyatda adolat,

tenglik, va inson qadr-qimmatining ustuvorligini kafolatlaydi. Shu bois gender tengligini ta'minlash huquqiy davlat va barqaror jamiyat qurishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inson huquqlari. Darslik / Mas'ul muharrir: X.T. Odilqoriyev. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020
2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar to'plami. – Toshkent: Adolat, 2019
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – 1948-yil 10-dekabr.
4. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAW). -1979-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – 2023-yilgi tahrir.
6. O'zbekiston Respublikasining “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. -2019-yil.
7. Saidov A.X. Inson huquqlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2018
8. G. Yuldasheva, N.G'afurova-Darslik: Inson huquqlari. -Toshkent, 2023